
QUVASOYDAGI MAKTAB UZATMASIDAGI NOSOZLIK BARTARAF ETILMOQDA



Quvasoy shahridagi "Ziynat" hamda "X.Olimjon" mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarini elektr ta'minotida uzilishlar kuzatilmoqda.

Yuqoridagi hududlarni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi 110/35/6 kVli "2A" podstansiyasidan chiquvchi 6 kVli "Maktab" elektr uzatish tarmog'ining boshlanish nuqtasida avariya uzilish yuzaga kelgan.

Mazkur nosozlikni bartaraf etish ishlariga tezkorlik bilan jamiyatning tegishli barcha bo'lim, xizmatlar mutaxassislari jalb etilib, kerakli maxsus avtotransport vositalari hamda zarur elektr qurilmalari bilan ta'minlangan.

■ez orada mazkur nosozlik to'liq bartaraf etilib, elektr uzatish tarmog'iga kuchlanish beriladi.

Avariya uzilish vaqtida keltirilgan noqulayliklar uchun iste'molchilardan uzr so'raymiz!

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-12-13 09:29:20